

Muqaddas NUR


**ERTAKLAR – EZGULIKNI
ARDOQLAR**



**«FARG'ONA» nashriyoti
2007-yil**

82 Фонд РНР

Muqaddas NUR (Arslanova)
ERTAKLAR – EZGULIKNI ARDOQLAR.
Ertaklar. So'zboshi muallifi A. Azimov.
«FARG'ONA» nashriyoti – 2007-yil – 36 b.



40 33211
0

©«FARG'ONA» nashriyoti – 2007-yil.



SO'Z BOSHI

Muqaddasxon Arslanova mana bir necha yildirki qalam tebratib kelmoqda. Uning qissalari, she'rlari va ertaklarini xalqimiz sevib o'qib kelmoqda.

«Ertaklar – ezgulikni ardoqlar» nomli kitobi uning uchinchi kitobi bo'lib, bu ham o'z muxlislari qalbidan chuqur o'r'in oladi, degan umiddaman.

Men bu dang'aralik yosh ijodkor qizimizga omad va baxt tilab qolaman.

*Alijon Azimov,
Dang'ara tumani hokimi.*

• • • • • • • • • • • • • • • •

YASHNAGAN DARAXT

Yigit bor ekan oqil,
Ammo xotini johil –
Xasisu ayyor ekan,
G'urbatga tayyor ekan.
Eri ketgan chog' ishga,
Tilni qayrab urushga,
Uydagilarni turtib,
Go'yo tartib o'rnatib,
Xatosini izlarkan,
Doim og'ir so'zlarkan.
«Qani menga qarang hoy,
Muncha yotdingiz, boboy!
Boshga tang'ib durrani,
Qani ushlang arrani.
Siz ham kelng kampirsho,
Bo'lsangiz ham oyposhsho.
Suv seping hovlingizga,
Qarashing cholingizga.
Ish qiling mana bundoq,
Bo'lmangiz tekintomoq.
Turibdi ekin-tikin,
Qimirlayapsiz sekin.
Bo'shashmang qayinsingil,
Harakat qiling yengil.
Mol bo'kiryapti, boring,
Keyin tez xamir qoring.
Qaynog'am, qiling ovqat,
Capim qaytarmang faqati!»
Deya socharkan zahar,
Eri ekan bexabar.
Ular o'g'lin g'amin yeb,
Siqilib qolmasin deb.

Kelin ishin yashirib,
Boshlaridan oshirib.
Yashabdi rosa chidab,
Yaxshi kunga ko'z qadab.
Ammo kun o'tgan sayin,
Ahvoli bo'lib qiyin.
Jismu-joni tolibdi,
Ko'chalarda qolibdi.
Yigit bir kun o'ylanib,
Ishga bormay aylanib.
Botib xayol-o'yiga,
Qaytib kelib uyiga,
Darvozasin qoqibdi,
Uydan ovoz chiqibdi.
Mo'ralasa tirqishdan,
Qandaydir baqirishdan
Aqli qolibdi shoshib.
Shunda devordan oshib,
Kirib ko'rsaki qarang,
Bo'lib qolibdi hang-mang:
Qo'li qaltirab dir-dir,
Arra tortar chol-kampir.
Ukasi o'tin yorar,
Singlisi sigir sog'ar.
Xotin oynaga qarab,
O'tirar timmay javrab.
«O'g'ling kelgach sassiq chol,
Bersa turli xil savol,
Beryapti shirin ovqat,
Deya maqtangiz faqat.
Munkaygan kampir, siz ham,
Mish-mishni aylangiz kam.
Chaqmachaqaq bo'lsangiz,
Hammangiz haydalasiz!»
Deb o'tirsa kerilib,

O'z husniga berilib.
Birdan mulzam bo'libdi,
Eri kirib kelibdi.
Hech narsa demay hargiz,
So'z gapirmay bir og'iz,
Yigit boshin egib ham,
Qo'liga qog'oz, qalam,
Olib chizibdi surat,
Qiz qaltrabdi shu vaqt.
Yigit nedir bitibdi,
Xotiniga tutibdi.
Asta ushlabdi uni,
Shunday ekan mazmuni:
Bir daraxt ko'targan qad,
Gurkirab turar faqat.
Baquvvatdir shoxlari,
Qalin barg, yaproqlari.
Ikkinchi yonga nazar,
Tashlasangiz alhazar,
Shoxi kesilgan daraxt,
Ko'rgach bo'lasiz karaxt.
Na shoxi, butog'i bor,
Biror barg yaprog'i bor,
Na bor soyasi quyuq,
Yap-yalang'och, qup-quruq.
Tushunmay xotin shu kez,
Qoziga shoshibdi tez.
Qozi qog'ozni olib,
Termulib, o'yga tolib,
Sukut saqlabdi uzoq,
Javob aytibdi shu choq:
«Qotmasin aslo boshing,
Daraxt – umr yo'l doshing.
Shoxlarning har bittasi,
Aziz ona, otasi.



Bunda yaproqlar jamdir,
Uka, singlisi hamdir.
Shox, butoq, barglari ham,
Bor ekan daraxt ko'rkam.
Ularsiz daraxt yog'och,
Qolar bo'lib yalang'och.
Ular-la, bag'ri butun,
Ularsiz quruq o'tin».«
Kelin chidolmay ortiq,
Uyalib juda qaltiq,
Oqil erin iziga,
Yurib, dono so'ziga,
Jon dildan tutib quloq,
Etibdi yuzini oq.
Yomonlikni tashlabdi,
Yangi hayot boshlabdi.



◆ ◆ ◆ ◆ ◆ ◆ ◆ ◆ ◆ ◆ ◆ ◆ ◆ ◆ ◆ ◆ ◆ ◆

ASALARI VA O'RGINCHAK

Necha oy, necha kunlab,
Asalari gul tanlab,
Chamanlar orasidan,
Ularning sarasidan,
Tinim bilmayin sira,
Yig'arkan hidlab shira.
O'zligini oqlarkan,
Jismini pok saqlarkan.
Lek u bir kuni yolg'iz,
Ovga chiqib do'stlarsiz,
Uchib yurganda yakka,
Yo'liqib o'rginchakka,
To'riga ilinibdi,
Zor qaqshab yalinibdi:
«Jon do'stim, yubor qo'yib,
Asal beraman to'yib
Yeysan, qil rahm-shafqat,
Zahringdan sochma faqat».
«Mayli, bitta shartim bor,
Anov pastlikda gulzor
Bordir, hozir ko'rasan,
Asal yig'ib berasan.
To'rimdan bo'shatayin,
U joyni ko'rsatayin.
Qanotim yo'qdir bilsang,
Meni mindirib olsang,
Uchardik birga-birga,
Tez yetardik u yerga».
To'rdan chiqqach quvonib,
Asalari ishonib.
Rostdir deb uning so'zi,
Tezda bo'libdi rozi.

Borsaki sho'ralarmish,
Badbo'y hid taralarmish.
Hamma yoq sassiq alaf,
Ko'ngli aynirmish qarab.
Asalari debdi zor:
«Qani sen aytgan gulzor?
Bulardan chiqmas asal,
Qo'nsam bo'laman kasal.
Ruxsat bersang ketayin,
Manzilimga yetayin».
O'rgumchak debdi kulib,
Ishidan mammun bo'lib:
«Ketolmaysan uzoqqa,
Ilintirdim tuzoqqa.
O'z ishimni epladim,
Sen laqmani bopladi.
Endi jim shu yerda qol,
Lek gapimga qulog sol.
Qil bitta xotamtoylit,
Senlar to'plagan boylik,
Qayerda bo'lsa ko'rsat;
Topib olay tez fursat.
Qay daraxt kovagida,
Yoki tosh-posh tagida?
Turgan bo'lsa ayt, darrov,
Buni bilmasin birov.
Bo'lma ko'p hardamxayol,
Umrin bo'lgandir zavol.
Borgan bilan u yoqqa,
Duch kelasan qiyonoqqa.
Keta olmaysan qochib,
Zahrimni qo'ydim sochib».
Ari xiyla o'ylabdi,
Ishontirib so'ylabdi:
«Chiqib borsang tog' sari,



Duch kelar qovoqari.
Usti qoradir bilsang,
Oldimga olib kelsang,
Qo'yaman tushuntirib,
Yelkasiga mindirib,
Sen-la birga ketadi,
O'sha joyga yetadi.
Olib chiqadi o'yib,
Asaldan yeysan to'yib.
Tezda borib topib ol,
Do'stimni opkelaqol».«
Shunda o'rgumchak shoshib,
Ketibdi dovon oshib.
Yetib boribdi toqqa,
Boqsa u yoq, bu yoqqa,
Aylanishib sarsari,
Qop-qora qovoqari,
Nenidir yeyar topib,
Shunda o'rgumchak chopib,
Debdi: «Ey oliyjanob,
Bir ish qilsangiz savob.
Asalarin tutgandim,
Pastlikka berkitgandim.
Asalga to'la daraxt,
Aytarkan sizga faqat.
Qo'yarkan tushuntirib,
Yelkangizga mindirib,
Men bilan ucha qoling,
Sirini bilib oling».
«Gaping qaytar zumrasha,
Dedingmi tutdim pashsha?»
«Yo'q, yo'q demadim undoq,
Yaxshilab tuting quloq»,
Debdi gapin qaytarib,
Shunda uni ko'tarib,



Qovoqari o'shal on,
Uchibdi pastlik tomon.
Borsaki xursand bo'lib,
Lek asalari o'lib,
Yotardi to'r ichida,
Aldanganin o'chida,
Qovoqari tez uchdi,
O'rgumchak yerga tushdi.
Nayzasini sanchdi u,
Chaqimchini yanchdi u.
O'rgumchak o'ldi lekin,
To'ri ichida sekin,
Tuxumdan chiqib asta,
Katta bo'lib birpastda,
Bolarilar qolgandi,
Uning o'rmin olgandi.
Shuki qissam ma'nosi:
Jaholatning dunyosi,
Oramizdan ketmagay,
Tugab, qurib bitmagay.
Xavfu-xatarni bilsak,
Do'stga maslahat qilsak.
Har kimga chalinmaymiz,
Tuzoqqa ilinmaymiz.
Buning-chun bizga shior:
Yashaylik doim xushyor.



❖ ❖ ❖ ❖ ❖ ❖ ❖ ❖ ❖ ❖ ❖ ❖ ❖

FIRIBGAR O'G'YL

Yigit yasharkan johil,
Shumniyat, qattiq ko'ngil.
Hech kimni suymas ekan,
Boylıkka to'ymas ekan.
Otasi aytgan niyat,
Va qoldirgan vasiyat,
Onasida turarkan,
Ololmasdan yurarkan.
Bir kun onasi bemor
Bo'lib aylabdi oh-zor.
Xushi emas joyida,
Deb, o'g'rilik poyida,
Onasi uxlagan chog',
O'z ishin etib ado,
Topdi, mana o'sha xat,
Otasi bergen tilxat.
Uni ochib o'qibdi,
Neligin uqibdi.
Bosganday bo'ldi tikon,
Mazmuni shunday ekan:
«Bordir jufti halolim,
O'nta qo'y va o'n molim.
Uning nomiga o'tsin,
Qo'shnilar muhr bitsin.
Agar o'lmayin ular,
Vaqtiki poda bo'lar,
Barisin o'g'lim boqsin,
Ammo bu pandim uqsin.
Hamma boylik, aytayin,
Qolar kampirdan keyin.
Ungacha ololmagay,
Egalik qilolmagay.

Yigit boshin qashlabdi,
Uni yirtib tashlabdi.
Asli o'n mol o'lgandi,
Lekin o'n qo'y qolgandi.
Mana shu kunga kelib,
Ular qirqta bo'lgandi.
Baxilligini qo'y may,
Boylikni ko'zi qiymay,
Qo'ylarni haydab shunda,
Yo'lga chiqibdi tunda.
Qaramay hech qayoqqa,
Jo'nabdi uzoq yoqqa.
Ichida u o'ylabdi,
O'z-o'ziga so'ylabdi:
«Hammasi bo'ldi menga,
Hech qolmadi enamga.
Kampir endi jim yursin,
Avval o'midan tursin.
Enam ko'nglin bilmasman,
Balki metos olmasman.
Aka, opasi turib,
Menga qo'y maydi berib.
Bu ishni to'g'ri qildim,
Tegishli haqim oldim.
Vasiyatni kim bilar,
Ungacha bir gap bo'lar».
Bu ishlardan bexabar,
Joni og'rib sarosar.
Dardi kuchayib yana,
Uy ichra yolg'iz ona.
Ko'zi ham ko'rolmabdi,
O'midan turolmabdi.
Bolam debdi hisobsiz,
So'zi qolib javobsiz,
Tan-joni bo'lib karaxt,

So'ngra aylabdi rihlat.
Baxtiga bor yaxshilar,
Qarindosh ham qo'shnilar,
Buni bilib qolibdi,
Darhol xabar olibdi.
O'g'lini barcha tamom,
Kutishibdi subhi, shom.
Ammo bo'lmaabdi darak,
Debdilar ko'mish kerak.
Bardosh bermay sabrga,
Qo'yishibdi qabrga.
O'zini aylab o'sal,
Yigit kelib bir mahal:
«Izladim necha oylar,
Yo'qoldi hamma qo'ylar»,
Deya to'kkach duv-duv yosh,
Ishonibdi keksa-yosh.
O'zgalar pul tutibdi,
Ma'rakasi o'tibdi.
So'ngra tushibdi yo'lga,
Qo'ylari turgan cho'lga,
Yetib borsaki arang,
Yo'q emish qo'ylar, qarang.
Turarmish bo'm-bo'sh o'ra,
Yana buzilgan qo'ra.
Zir yugurib chor yoqqa,
So'ngra borsa qishloqqa,
Xovlisida yurganmish,
Xo'p ma'rashib turganmish.
Ochilgach xiyla siri,
Qarindoshlarning biri,
Debdi: «SHoshibsan bir oz,
Sengaydi hamma meros.
Bizzdan qizg'onib qara,
Bo'ldi oq yuzing qora.

Yolg'on gaping chin bo'lsin,
Qo'ying qirilib o'lisin!»
Yoz o'tib, kelibdi qish,
Chinga aylarub qarg'ish.
Qo'yłari o'lib bir-bir,
Qaltirabdi u dir-dir.
Iloj-chora qolmabdi,
Sira saqlay olmabdi.
Qachon o'lganin bilmas,
So'ysa ham alam qilmas.
Qattiq kasal kelibdi,
Bari harom o'libdi.
Kechalari emgaklab,
Har birini sudraklab,
Odamlardan yashirib,
Qo'ralardan oshirib,
Tashlab katta ariqqa,
Yem qilibdi baliqqa.
Qo'yilar o'mni xuvillab,
Yig'labdi chun uvillab,
Bilib qolib bu ishni,
Debdi unga bir qo'shni:
«Tekinni yig' uyulmas,
U hech kimga buyurmas.
Gar kelishsang albatta,
Rozilikda ish katta».






RIVOVAT

Bir katta yurt bor ekan,
Ota-on a xor ekan.
Hamma bolam-bolamlab,
Qish-yozga ovqat g'amlab,
Bolalarin boqarkan,
Va ulardan qo'rqarkan.
Gar ota-onam desa,
Yo kelib ovqat yesa,
Bolalar ham shu mahal,
Ko'tarar ekan janjal.
Bu shaharning podshohi,
Yetib ko'kka oh-vohi,
Oxir zerikib bunda,
Xat chiqaribdi shunda:
«Ko'chalarda otalar,
Bobo, buva, kattalar,
Momoyu buva, ena,
Qay birin aytay yana.
Bari xassa tayangan,
Ayting kimga suyangan?
Bola boqib pok-halol,
Qarigach bo'lsa uvol.
Axir menga ham qiyin,
Qay birini boqayin.
Boshim qotib ushbu dam,
Tegar deb nafim, foydam,
Chiqardim oliv farmon,
Tinglasin har bitta jon.
Ahdimni chin ushladim,
Podshohlikni tashladim.
Kimki bo'lsa jonkuyar,
Ota-onasin suyar.



Men tekshirib turayin,
Yetaklasin, ko'rayin.
Keyin ahdim aytaman,
Ko'nmasangiz qaytaman».
Kim yoqasini tutgan,
Kim bolasin unutgan,
Ona yetaklagan kim,
Ota yetaklagan kim,
Xayron bo'lib bu ishdan,
Bolalar ketgan xushdan.
Ko'kka yetgach bu oh-voh,
«Bas qiling! – debdi podshoh
Chidolmayin bu holga,
– Tutmang boshqa savolga.
E'tiroz bo'lsa aytинг,
Yo'qsa bu yo'lдан qayting.
Janjal ko'tarmang faqat.
Sizlarga qirq kun muhlat.
Keyin yurmangiz nolib»,
Deya qirq usta olib,
Chiqibdi uzoq yo'lga,
Yetibdi dashtu, cho'lga.
Mana shu kundan boshlab,
Hammasi qattiq ishlab,
Qirq kungacha to tinmay,
Dam olish nima bilmay,
Yaratibdi bir shahar,
Ko'rgan deydi alhazar.
U ekan osmono'par,
Shunda podshoh: – Hoy chopar,
Qani tezroq yugur, yel,
Bor ularni olib kel,
Faqat majburlab urma,
Izingga qayt, ko'p yurma!
Chopar tezda yetibdi,





Bo'lar gapni aytibdi,
To'planib qishloq ahli,
Kim nohaqu, kim haqli,
Deya chaqirib kengash,
Rosa qotiribdi bosh.
So'ngra chiqibdi qaror,
Har kimdadir ixtiyor,
Ba'zilar ikkilanmay,
Juda uzoq o'ylanmay,
Ko'kragiga bir mushtlab,
Bolalarini tashlab,
Uy va joylari qolib,
Ota-onasin olib,
Xayrlashib ketibdi,
Shaharga tez yetibdi.
Podshoh quchog'in kerib,
Uy va joylarni berib,
Oqizmay yoshlarini,
Silabdi bosqlarini.
Faqat chiqarib qaror,
Debdi: - Menda ixtiyor,
Bolani o'ylamaysiz,
Xattoki uylanmaysiz,
Ota-onangiz qarab,
Oq yuvib va oq tarab,
Aylab qanoat-sabr,
Yashaysiz to bir umr,
Bosh tortsangiz shu zamон,
Sizga muntazir zindon.
Ular shunday etibdi,
Oyu, yillar o'tibdi.
Qariyalar keksayib,
Kasal bo'lib munkayib,
Oshin oshab bo'libdi,
Yoshin yashab bo'libdi,

Lekin birma-bir hayhot,
Bari etibdi vafot.
Ota-onasi o'lib,
Mung'ayib, yetim bo'lib,
Ne qilarin bilmabdi,
Ularga ish qolmabdi.
Podshoh o'ylab shu fursat,
Hammaga berib ruxsat,
Katta yo'lga solibdi,
O'zi yolg'iz qolibdi.
Qashshoq xalqini o'ylab,
O'zi-o'ziga so'ylab,
Kun bo'yi o'tiribdi,
Rosa bosh qotiribdi.
O'ziga kelgan fikrdan,
Sakrab turibdi birdan.
Oltinlarin olibdi,
Xurjuniga solibdi.
Piyoda xorib, chopib,
Bir boy shaharni topib,
Yangi reja ko'zlabdi,
Bozorini izlabdi.
Hunarmand uchun asbob,
Sotib olib behisob,
Aravaga joylabdi,
Yo'lga tushib jo'nabdi.
Yetib kelgani zamон,
Uni qutlab олонон,
Oyog'iga urib bosh,
Ko'zlaridan to'kib yosh,
Etak ilgin tutibdi,
Dardin bayon etibdi:
«Bizlar o'stirib farzand,
Rohat ko'rmadik harchand.
Olib bersakda xotin,

Boshlarda sindi o'tin.
Nasihatimiz yoqmas,
O'g'limiz bizni boqmas.
Qizlar qilmay so'zimiz,
Qaro qildi yuzimiz.
Bu yerni tark etamiz,
Siz-la birga ketamiz».
Ularni tinglab podshoh,
Boshin urib debdi: – Oh,
Yo'q, men yanglishdim qattiq,
Chidolmam bunga ortiq.
Xatoni qildim o'zim,
Mana ochildi ko'zim.
Endi buni tuzatay,
Ne bo'larin kuzatay.
To yetti yoshdan tortib,
Yetmish yoshgacha tartib,
O'rmatay qayta boshdan,
Naf chiqadi bu ishdan.
Cholu, erkak jam bo'ling,
Yoqqan asbobni oling.
Etikdo'zu, duradgor,
Usta, naqqosh, tadbirkor,
Soatsoz, o'qituvchi,
Cho'ponmi, yo quruvchi,
Qay birin eting xohish,
Hammangizga bordir ish.
Ayol, qizlar jamul-jam,
Bo'ling deyman xotirjam.
Tikuvchilik bilasiz,
To'quvchilik qilasiz.
Nonvoy bo'lib non yoping,
Yo dalada yer choping.
Ishlasangiz qolmay och,
Hech kimga bo'lmay muxtoj.



Mazza qilib yashaysiz,
Topganingiz oshaysiz.
Hammangiz bolam deysiz,
Ular g'amini yeysiz.
Yetti yoshga to'ladi,
Qo'lidan ish keladi.
Bo'lsin ilm, hunari,
Sizga tegmas zarari.
Topsa kunlik nonini,
To'yg'izadi qornini.
Ham ko'rsatib muruvvat,
Toki qildiring mehnat.
Bolalar bo'lsa katta,
Birgalikda albatta.
Kuyov-kelin qilib to'y,
Solib beringiz uy-joy.
Qachon ishlab tolasiz,
Kuch-quvvatdan qolasiz,
Qay farzand sizga yoqsa,
Og'rinmay qarab boqsa,
Yordam qo'lin uzatsa,
Oxiratga kuzatsa,
O'shang a quchoq kerib,
Uy-joylaringiz berib,
Topshirasiz to abad,
Faqat qoldirasiz xat.
Chunki qolgan bolalar,
Ko'tarib oh-nolalar,
Uy-joyingiz talashib,
Mushtlashib, yoqalashib,
Qilmas uchun o'ch, gina,
Ish bitiring jimgina.
Shunda har ahli-avlod,
Bu udumni etib yod,
Amal qilishib tamom,



Ettirar toki davom.
Shu-shu o'sha shaharda,
Xoh kecha, xoh saharda,
Urush chiqmay bemahal,
Hech kim ko'tarmay janjal,
Tinch-halol mehnat qilib,
Yasharkan o'zni bilib,
Qayerda podshoh odil,
O'sha joy oboddir, bil.
Do'stlarga berib ko'mak,
Yashaylik bo'lib o'mak.



♦ ♦ ♦ ♦ ♦ ♦ ♦ ♦ ♦ ♦ ♦ ♦ ♦ ♦ ♦ ♦

SODDA OLMAXON VA XIYLAGAR XAKKA

O'zimizni tomonda,
Bir kattakon o'rmonda,
Ko'ngli ochiq, mehribon,
Yashar ekan olmaxon.
Haloi bo'lgan-chun o'zi,
To'g'ri bo'lgan-chun so'zi,
Kim ne desa ishonib,
Do'st tutarkan quvonib.
Bir kun chiqib terakka,
Uni poylabdi xakka.
Chunki u yiqqan yong'oq,
Iniga sig'may shu chog',
Hattoki to'lib-toshib,
Ketibdi yerga tushib.
Xakka bo'lsa tez chaqqon,
Tumshug'i bilan shu on,
Yig'ib-yig'ib teribdi,
Olmaxonga beribdi.
U bo'lsa, eh, quvonib,
Shodlikdan ko'zi yonib,
O'shal zamon do'st tutib,
Iniga taklif etib,
To'risiga o'tqazib,
Yong'oq bilan to'yg'azib,
Quvonchga sig'may chunon,
Rosa qilibdi mehmon.
Shunda xakka xiylagar,
Debdi: «Bu ining agar,
O'zingga torlik qilsa,
Yong'oqlaring to'kilsa,
O'tirmagin bo'shashib,



Mening uyimga tashib,
Hammasini joylay qol,
Yashaysan keng, bemalol.
Hozir yoz, ko'pdır yemak,
Senga bu qishda kerak.
Chiritmayın saqlayman,
Bu va'damni oqlayman».
Olmaxon tushib laqqa,
Debdi: «Hamma yong'oqqa,
Seni etdim xo'jayin,
Lek bir sirni aytayin,
Hech kimga churq etmay qol,
Tunda kelib tashib ol.
Xakka shunday qilibdi,
Faqat ikkov bilibdi.
Kuz tugab, boshlanib qish,
Olmaxon chekib tashvish,
U yon, bu yon chopibdi,
Xakkavoyni topibdi.
So'ng debdi: «Salom xakka,
Yaxshi uchrading yakka.
So'zimdan qaytganim yo'q,
Hech kimga aytganim yo'q.
Qornim ochdi shu desang,
Yong'oqlarimni bersang».
Xakka hezlandi shu choq:
«Iye, qanaqa yong'oq?
Boshimga solma kulfat,
Qilma bundayin tuhmat.
Ko'p oshirma gunohing,
Bunga bormi guvohing?»
«Iye, xakkavoy senga...»
«Tuhmat aylama menga,
Muncha bo'lmasang axmoq,
Olmadim sendan yong'oq».

Qani tezroq bor, jo'na,
Ko'zing o'yvolmay yana!»
Deb unga baqiribdi,
To'dasin chaqiribdi.
Olmaxon xushi uchib,
Zo'rg'a qolibdi qochib.
Boribdi quruq ini,
Ochlilik qiy nabdi uni.
Pastga ma'yus boqibdi,
Ko'zidan yosh oqibdi.
Oyoq-ko'li bo'shashib,
Daraxtdan yerga tushib,
U yon, bu yon mo'l tirab,
O'tiribdi qaltirab.
Shu mahal tipratkon,
Debdi: «Hoy, hoy olmaxon,
Iye, tavba nimasi,
Yig'layapsan chamasi?
Ayt, ne bo'ldi bilayin,
Balki, yordam berayin?»
Olmaxon yig'lab shu choq,
So'z labdi boshdan-oyoq.
Tipratikon xo'p tinglab,
Debdi: «O'zingni o'nglab,
So'zlarimga quloq sol,
O'zingga bu pandim ol.
Kim aldasa ishonma,
Yo maqtasa quvonma.
Qu loq solib o'lurma,
Soddaliging bildirma.
Yo'qsa och qolar qorming,
Hayotdan topmay o'rning,
Yurasan yig'lab, bo'z lab,
Har kimga darding so'z lab.
Ajrat yaxshi, yomon ni,



Haqiqatu, yolg'oni.
Aldoqchi, yumshoq so'zlar,
O'zin foydasin ko'zlar.
Bo'lsa kim firibgar do'st,
Sendan axtarib kam-ko'st,
Doim ta'qib etadi,
Haqing olib ketadi.
Kim bo'lsa chin jonkuyar,
Molimgmas, o'zing suyar.
Hech narsa qilmas ta'na,
Bo'lmas unda o'ch yana.
Endi ko'zing katta och,
Yolg'onchi do'stlardan qoch!»
Olmaxon shunday qilib,
Yaxshi-yomonni bilib,
Olguncha xo'p tolibdi,
Ancha pishib qolibdi.
Kelganda kelgusi yil,
Yong'oqdan olib hosil,
Uyasin chuqr kavlab,
Yong'oqlarini o'rab,
Mahkam qilib qo'yibdi,
Qishi bilan to'yibdi.
Endi har kim so'ziga,
Xoh dushman, xoh do'stiga,
Aslo qulq solmabdi,
Bilganidan qolmabdi.



♦ ♦ ♦ ♦ ♦ ♦ ♦ ♦ ♦ ♦ ♦ ♦ ♦ ♦ ♦

OTANING XATOSI

Bu voqea uzoqda,
Allaqaysi qishloqda,
Qachondir bo'lgan ekan,
Bizlarga qolgan ekan.
O'tganmas shu zamonda,
Badavlat xonadonda,
Eru-xotin yasharkan,
Tinim bilmay ishlarkan.
Oradan o'tib oy, yil,
Ko'ribdi ikki o'g'il.
Ular o'nga to'lganda,
Qo'lidan ish kelganca,
Ota bir reja o'ylab,
Su'ngra xotinin chorlab,
Debdi: «Qani quloq sol,
Bu gapimni uqib ol.
Gar menga bersang izn,
O'g'illarimni o'zim,
Etmoqchiman tarbiyat,
Shuni men qildim niyat.
Faqat sen aralashma,
Men gapirsam gap qo'shma!»
Hech iloj topmay chora,
Ko'olib ona bechora,
«Xo'p, indamayman», – debdi,
Lek chetdan kuzatibdi.
Katta o'g'li sal bo'shoq,
Lek ish qilarkan ko'proq.
Ota bo'lsa atayin,
O'g'il bajargan sayin,
Qiyin ish buyurarkan,
Ulgurmasa urarkan.

Yeyavergandan kaltak,
Misoli bo'lib tentak,
Qat'iy qaror etibdi,
Uydan qochib ketibdi.
Kichik o'g'il sho'x, dadil,
Ekan odobli, oqil.
Ham zabardast, paxlavon,
Shirinsuxan, mehribon.
Ko'proq non yeyar ekan,
Lek ishni kiyar ekan.
Otam baqirmasin deb,
Qattiqroq urmasin deb,
Turar ekan tong otmay,
Hech bir ishdan bosh tortmay,
Bajararkan olmay dam,
Indamay charchasa ham.
Har kuni etik yechib,
Yalangayoq suv kechib,
Katta loy qilar ekan,
Guvala quyar ekan.
Bir kun rangi olinib,
U kasalga chalinib,
Ingrab etib ohu-zor,
Yotib, bo'libdi bemor.
Shunda ota baqirib,
Xotinini chaqirib,
Debdi: «Mana shu kundan,
Ajrashmoqchiman sendan.
Bilmabman tagi asling,
Chatoq ekan-da nasling.
O'zing bir pulga qimmat,
Umrimni qilding chimmat.
Sendan tug'ilgan bola,
Hammasi aqli chala.
Katta o'g'ling quloqsiz,



Biror ishga yaroqsiz.
Hattoki bizdan kechib,
Mana, ketibdi qochib.
Kichik o'g'lingni qara,
Misoli poshsho, to'ra.
Uch kundirkı qilmay or,
Yotibdi, emish bemor.
O'z fikrimda qolaman,
Boshqa xotin olaman.
Kasalmand o'g'lingni ol,
Tezda bu uydan yo'qoll»
Ona ko'z yosh to'kmayin,
Hatto qaddin bukmayin,
Mol-mulkka nazar solmay,
Birorta cho'p ham olmay,
Dardini tishda tishlab,
Kasal o'g'lin opichlab,
Uydan chiqib ketibdi,
Bir qishloqqa yetibdi.
Birdan boshi aylanib,
O'tirganda o'ylanib,
O'tib qolib bir ayol,
Unga beribdi savol:
«Charchab, olyapsizmi dam,
Kerakni biror yordam?
Bu kim? O'g'lingiz chog'i,
Bo'shashgan qo'l oyog'i.
Chamasi qattiq bemor,
Unga zo'r tabib darkor.
Xohlang shu yerda turing,
Xohlang men bilan yuring.
Eng katta o'g'lim tabib,
Hozir kelaman aytib».
Degan gapni eshitdi,
So'ng ona xushdan ketdi.

Kelganida o'ziga,
Begona uy ko'ziga,
Ko'ringach dedi: «YO rab,
Ollohdan najot so'rab.
Asta o'midan turdi,
O'g'lin yotganin ko'rdi.
So'ngra xaligi ayol,
Termulib berdi savol.
Ona jim, indamadi,
Hech bir narsa demadi.
Sukut saqlab uzoq vaqt,
Shu so'zni dedi faqat.
«Olguncha qilay duo,
O'g'limga toping davo».
Fido aylab jonini,
Hatto berib qonini,
Ayol timmay yelibdi,
Yigit xushga kelibdi.
So'ng ona topib fursat,
Ketnoqqa olib ruxsat,
Debdi: «Endi ketaylik,
Yo'lda davom etaylik,
Deya ma'yus boqibdi,
Ko'zidan yosh oqibdi.
Ayol o'zini o'nglab,
Uning ahvolin anglab,
«Sezdim sizda bor tashvish,
Tushgan o'xshar mushkul ish.
Yashirmang, u qanday sir,
Barin aytинг birma-bir».
Ona uzoq o'ylabdi,
Lek barisin so'ylabdi.
Buni eshitgan ayol,
Yoqasini ushlab lol,
Debdi: «Siz bo'ling bardam,



O'zim beraman yordam».
Deya chiqib ketibdi,
Bir dalaga yetibdi.
U yerni sotib olib,
Ishlov berib, go'ng solib,
Atrofin qilib gulzor,
O'rtasini uzumzor,
Aylab, bir bog' etibdi,
So'ng uyiga qaytibdi.
Keyin bir otga minib,
Erkaksifat kiyinib,
Qaramayin o'ng-so'lga,
Asta chiqibdi yo'lga.
Kezib qishloqma-qishloq,
Qolmayin qir, adir, tog',
Uchraganga so'zlabdi,
Ul yigitni izlabdi.
Oxir chiqmagach foyda,
Odam to'plangan joyda,
Debdi: «Menda bir bog' bor,
Unga kerak mardikor.
Shart shuki, mehnat qilsa,
O'zin qadrini bilsa,
Gapirmasa birovga,
Chidasa qor, qirovga,
Birga olib ketayin,
So'ngra o'g'il etayin».
Hamma ketibdi qo'rqib,
Bir yigit oldga chiqib,
Debdi: «Mayli men boray,
O'zimni sinab ko'ray».
Yigitni olib ayol,
Birorta bermay savol,
Uyiga yetib oxir,
Xo'rsinib chuqrur, og'ir,

Darvozasin qoqibdi,
Ona shoshib chiqibdi.
Neki ko'z bilan ko'rар,
Kо'chada o'g'li turar.
Un chiqarmay yig'labdi,
Lekin odob saqlabdi.
Ayol uyiga kirib,
Hovlisin toza ko'rib,
Debdi: «Men bor qayerda,
Sizlar ham o'sha yerda».
Ona shodlanib boqib,
Quvonch yoshlari oqib,
Debdi: «Kelmasa malol,
Sizga beray bir savol,
Shahar, qishloq oralab,
Surishtirib so'roqlab,
Behuda qynab jonin,
Mening o'g'lim ekanin,
Qaydan bila qoldingiz,
Qanday topib oldingiz?»
Ayol debdi: «Gaping chin,
Yoki yolg'on ekanin,
Bir sinab bilay dedim,
So'ng qabul qilay dedim.
Bular ballki to'g'ridir,
Yo aldamchi, o'g'ridir,
Vasvasa solib shayton,
Kо'p qildim shubha, gumon.
So'ngra bir reja tuzdim,
Shahar, qishloqlar kezdim.
Qayerda olomon ko'p,
Yo bo'lса yigitlar to'p,
Dedim: «Kerak mardikor,
Beray haqin bisyor».
Desam, hammasi kulib,



Yana mashara qilib,
Dedi: «Biz olib-sotar,
Kunimiz qanday o'tar?».
Yana yurdim bir to'da,
Odam ko'p edi juda,
Chiqarib xunuk ovoz,
O'ynatar edi xo'roz.
U yerdan tezda ketdim,
Yo'linda davom etdim.
Keldim xilvatroq joyga,
Kimdir termulib soyga,
O'tirardi boshi ham,
Kiprigu, yuzida nam.
Bir to'p yigit kulardi,
Uni mazax qilardi.
So'rashgach berib savol,
Dedim: «Mehnatkash, halol,
Yigit topib beringlar,
Yo hammangiz yuringlar».
Ular bo'lib qoldi jim,
«Men boraman», - dedi kim.
Bu o'sha soy bo'yida,
Tirikchilik o'yida,
O'tirgan bola edi,
Do'stleri «mol»a, dedi.
Ko'rib turibsiz mana,
Bugun siz baxli ona.
Ona shu kundan boshlab,
O'tmishin ortga tashlab,
Ikki o'g'lini olib,
Tunlar uyqudan qolib,
Mehnat qilib tolmabdi,
Hattoki dam olmabdi.
Shunda o'tib uch-to'rt yil,
Uzumlar berib hosil,



Rosa meva solibdi,
Hamma hayron qolibdi.
Ayol bir kun onaga,
Chaqirib bir xonaga,
Debdi: «Xo'p desang agar,
Eringdan olsak xabar.
O'g'illaringni chaqir,
Chunki, otasi axir».
Xo'p maslahat qilishib,
Bir qarorga kelishib,
Qaramayin o'ng, so'lga,
Oxir chiqishdi yo'lga.
Qishloqqa kirib shu on,
Yurdi hovlisi tomon.
U yon, bu yon qarashdi,
Qo'shnilaridan so'rashdi.
Qo'shni dedi qo'l siltab,
So'zlolmay labi titrab:
«Otang bir joyda yotar,
Hanuz sizlarni kutar.
Ketganingizdan keyin,
Qasdma-qasdga atayin,
Bir xotin olib keldi,
O'yaldi – baxtim kului.
Xotin bo'lib firibgar,
Otang qon yutdi agar.
Ne qilarin bilolmay,
U shumdan qutulolmay,
Usti kir, bo'lib xarob,
Rosa chekdi iztirob.
Siz boqqan buzoq, sigir,
Bari sotildi bir-bir.
Mana uylar qup-quruq,
Balki bu haqdan buyruq.
Sizdan so'ng g'ami ortdi,



Otang azobin tortdi.
Moshdek ochildi ko'zi,
Cho'p bo'lib ozdi o'zi».
O'g'illarini ko'rib,
Ota o'rnidan turib,
Uzoq-uzoq bo'zлади,
Dardin aytib so'zлади.
Mana do'stlar, siz guvoh,
Ayting kimdadir gunoh?
Kimki bo'lsa shum, ayyor,
Bir kuni jazo tayyor.
Sabrliga zar, oltin,
Sabrsizga ho'l o'tin.
Buni uqmang yo uqing,
Ertak mag'zini chaqing.



Adabiy-badliy nashr

Muqaddas NUR

**ERTAKLAR –
EZGULIKNI ARDOQLAR**

Ertaklar

Muharrir: S. Hasanov
Tex. muharrir: S. Jo'rayev
Dizayner: U. Jabborov
Musahhih: T. Akbarova

Bosishga ruxsat etildi: 2007-y.19.04. Nashriyot bosma
tabog'i 2,25. Shartli bosma tabog'i 2,75.
Bichimi 84x108 $\frac{1}{16}$. Adadi 1000 dona.
Buyurtma № 32. Bahosi kelishilgan narxda.

«FARG'ONA» nashriyoti.
150104, Farg'ona shahri, Sohibqiron Temur nomidagi
ko'cha, 28.

«FARG'ONA» nashriyotining ijaratagi
«Qirguli-Poligrafchi» ShK bosmaxonasida chop etildi.
Farg'ona shahri, Qirguli dahasi, Farg'ona ko'chasi, 6.